



BOKSCHI O'G'IL BOLALAR VA QIZLARNING MOTIVATSIYA HOLATI NATIJALARNING BIRLAMCHI TAHLILI

Nazarova Zilola Xayrullayevna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Sport psixologiyasi va pedagogika" kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya: *ushbu maqola bokschi o'g'il bolalar va qizlarning motivatsiyasini aniqlab olish uchun tanlab olingan metodikalarning matematik statistik tahlili natijalari haqida ma'lumot beradi.*

Kalit so'z: *Boks, motivatsiya, qiz bolalar, o'g'il bolalar*

Insonni faoliyatga teng ma'noda muvaffaqiyatga erishish istagi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv bilan undashi mumkin. Muvaffaqiyat motivatsiyasi ijobiy xarakterni namoyon etadi. Bu motivatsiya bilan individ xatti-harakati konstruktiv va ijobiy natija tomon yo'nalgan bo'ladi. Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasi salbiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu motivatsiyada individ avvalo faoliyatdan jazolanmaslikni o'ylaydi. Ularning faoliyatini salbiy oqibatlarini kutish belgilaydi. Hech bir ish qilmasdan inson faoliyatni qanday muvaffaqiyatli bajarish haqida emas, balki barbod bo'lishdan qo'rqish va undan qutilishni o'ylaydi.


Sport faoliyatida muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi sport yutuqlarini qo'lga kiritish va sport bilan shug'ullanishga bo'lgan munosabat bilan bog'liq. Masalan, muvaffaqiyatga intilish borasidagi yuqori darajadagi motivlarga ega sportchilar yaxshi anglangan maqsadga ega bo'lganlar, ular nafaqat yuqori ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish va musobaqalarda yetakchilik qilishga intilganlar, balki ayni paytda yaxshi rivojlangan mas'uliyat hissiga ham ega bo'ladi.

Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasiga tayangan sportchilarda birinchilardan farqli o'laroq, faoliyatni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. Shu tufayli ularda ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o'xshash holat kuzatiladi.

Shu holatlarni inobatga olgan holda biz motivatsiyani aniqlashga qaratilgan bir nechta metodikalarni tanlab oldik va bokschi qizlar hamda o'g'il bolalarda o'tqazildi. Natijalar matematik statistik tahlil qilindi. Ushbu metodikalar sportchilarning faoliyatida qaysi motivatsiya ustunlik qilishini va ular qanday motivatsion shaxs xususiyatlariga ega ekanligini bilish imkonini beradi. Shu bilan birga faoliyat motivatsiyalarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi katta ahamiyatga ega.

Ular: T.Elersning "muvaffaqiyatga erishish hamda mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini tashxis qilish metodikalari", V. Gerbachevskiy so'rovnomasi,

A.V.Shaboltas “Sport bilan shug‘ullanish motivi”, V.V.Boykaning “Frustratsiya darajasini aniqlash” metodikalari foydalanildi.



1-rasm. Sinaluvchilarning jinsi haqida ma'lumot

Tatqiqotda 257 nafar sinaluvchi ishtirok etdi. Ular 124 nafari qizlar tashkil qilsa, 133 nafari o'g'il bolalarni tashkil qilishini kuzatishimiz mumkin. Ma'lumotlarning foizini tahlil qilganda qiz bolalar 48% ni hamda o'g'il bolalar 52% ni tashkil etgan. Bu ma'lumotlar nisbatan teng taqsimlanganligini ko'rsatmoqda, demak tadqiqotning keyingi bosqichida jins tafovutlarini qiyosiy tahlili keltirish mumkin.

1 - Jadval

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasi tavsiflovchi statistika (n=257)

		Minim al	Maksim al	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Asimmetriya	Eksess
Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	57	6,00	26,00	12,4553	4,96383	,987	-,140

Bizning olib borgan tadqiqot ishimizda 257 nafar sinaluvchi ishtirok etdi. Yuqorida aytib o'tganimizdek tadqiqotimiz doirasida biz 5 ta metodikadan foydalandik.

Ma'lumotlarning to'g'ri o'tkazilganligini aniqlash maqsadida biz tavsiflovchi statistika tahlilini amalga oshirdik. Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasi natijalari tahlilida quyidagi holatlar aniqlandi. Sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 6 ballni tashkil qilsa, maksimal ball 26 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 12,45 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standart og'ish esa 4,96 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasi uchun 7.49 dan 17.41 ballgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A= 0,987$) va eksess ($E=-0,140$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

**2 - Jadval****Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi metodikasi tavsiflovchi statistika**

	N	Minimal	Maksimal	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Asimmetriya	Eksess
Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi	257	4,00	26,00	13,4514	6,06271	,252	-1,167

(n=257)

Elersning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi metodikasi tavsiflovchi statistika natijalari shuni ko'rsatadiki, sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 4 ballni tashkil qilsa, maksimal ball 26 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 13,45 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standart og'ish esa 6,06 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, Elersning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi metodikasi uchun 7,39 dan 19,51 ballgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=,252$) va eksess ($E= -1,167$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

T. Elersning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash metodikasi esa sinaluvchilarga 3 tadan so'z bo'lgan 30 qator so'zlar tavsiya etiladi. Har bir qatordan o'ziga yaqin bo'lgan va xarakteriga mos keladigan bitta so'zni tanlashi va uni belgilashi lozim. Ushbu metodikaning natijalari tahlilida ballar soni qanchalik ko'p bo'lsa, himoya, mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. 2dan 10 balgacha himoyaga nisbatan quyi motivatsiya, 11 dan 16 balgacha motivatsiyaning o'rtacha darajasi, 17 dan 20 balgacha motivatsiyaning yuqori darajasi, 20 baldan yuqori ball olgan sinaluvchilarda o'ta yuqori darajadagi motivatsiya holati namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Sinaluvchilarning metodikadan olgan minimal va maksimal ballari 3 – jadvalda ko'rsatildi.



3 - jadval

Gerbachevskiy so'rovnomasi tavsiflovchi statistika (n=257)

Shkalalar	N	Minimal	Maksimal	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Asimmetriya	Eksess
Ichki motiv	257	3,00	23,00	12,3463	4,81703	,185	-,873
Bilish motivi	257	3,00	21,00	12,5642	4,34327	-,075	-,830
Qochish motivi	257	2,00	21,00	12,8171	4,76904	-,372	-,730
Musobaqalashuv motivi	257	,00	20,00	11,4163	4,09194	-,112	-,339
Faoliyatni almashtirish xohishi	257	2,00	21,00	11,0895	4,01216	-,157	-,531
O'zini e'zozlash motivi	257	2,00	21,00	12,4669	4,37409	,147	-,661
Natijalarning ahamiyatliligi	257	2,00	21,00	10,4436	4,17088	,245	-,262
Vazifalarning murakkabligi	257	2,00	20,00	10,1712	3,25268	,291	,694
Irodaviy quvvat	257	3,00	21,00	11,3346	3,60188	,351	-,018
Natijalarga erishganlik darajasining bahosi	257	4,00	18,00	11,2568	2,46305	,101	,440
O'z_imkoniyatlari ni_baholash	257	5,00	21,00	12,4630	3,05924	,451	,503
Quvvatni safarbar eta olinganlik	257	5,00	20,00	12,0430	2,50531	,409	,411
Faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi	257	6,00	18,00	11,8677	2,40564	,096	-,216
Natijalarning qonuniyatlari	257	5,00	21,00	11,2062	2,39797	1,509	4,446
Tashabbuskorlik	257	3,00	24,00	11,2685	2,95571	1,213	4,143

V.Gerbachevskiy so'rovnomasi motivatsiya tuzilmasining 15ta komponentlarini: Ichki motiv - topshiriqlarning jalb etuvchanligi, topshiriqqa nisbatan qiziqishning mavjudligi, bilish motivi - sub'ektning o'z faoliyat natijalariga qiziqishi, natijalardan qoniqishi, qochish motivi - natijalarni past bo'lishi va qoniqmaslikni



keltirib chiqarishidan qochish, musoboqalashuv motivi - natijalarini boshqalarnikidan ustunroq bo'lishiga intilishi, faoliyatni almashtirish motivi - faoliyatni o'zgartirish xohishini paydo bo'lishi, boshqa faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga urinish, o'zini e'zozlash motivi – faolitni qat'iy turib amalga oshirish, yangidan yangi murakkab vazifalar qo'yish va amalga oshirishga intilish, natijalarning ahamiyatliligi - sabab va oqibat tamoyiliga ko'ra, muhim shart-sharoitlarga ko'ra ish tutish, faoliyat natijalariga shaxslik mazmunini berish, topshiriqlarning murakkabligi - vazifalarning murakkabligi, irodaviy quvvat - topshiriqlarni bajarishdagi irodaviy quvvatni namoyon bo'lishi, natijalarga erishganlik darajasining bahosi - ushbu faoliyat yo'nalishiga ko'ra o'z imkoniyatlarini baholashi, o'z imkoniyatlarini bahosi – mavjud imkoniyatlarini to'g'ri baholash, quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi - natijalarga erishishda kuchlarni safarbar etishi, natijalarni kutilganlik darajasi - faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi, natijalarning qonuniyatilari - natijalarning motivatsiya tuzilmasiga ta'siri, unga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar, natijalarni tasodiflarga, vaziyatlarga va shaxsiy imkoniyatga bog'liqligi hamda tashabbuskorlik kabilarni qabrab oladi.

Gerbachevskiy so'rovnomasi tavsiflovchi statistika natijalari shuni ko'rsatadiki, sinaluvchilarimiz tomonidan olingan ichki motiv topshiriqlarning jalb etuvchanligi, topshiriqqa nisbatan qiziqishning mavjudligi shkalasi bo'yicha minimal ball 3 balni tashkil qilsa, maksimal ball 23 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 12,34 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standar og'ish esa 4.81 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, Gerbachevskiy so'rovnomasi uchun 7,53 dan 17,15 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=,185$) va eksness ($E=-,873$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksness kuzatildi.

Bilish motivi o'z faoliyat natijalariga qiziqishi va qoniqishi shkalaga ko'ra sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 3 balni tashkil qilsa, maksimal ball 21 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 12,56 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standar og'ish esa 4.34 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, bilish motivi o'z faoliyat natijalariga qiziqishi va qoniqishi shkala uchun 8,22 dan 19,9 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=-,075$) va eksness ($E=-,830$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz chap tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksness kuzatildi.

Qochish motivi- natijalarni past bo'lishi va qoniqmaslikni keltirib chiqarishidan qochish shkalasida sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 2 ballni tashkil qilsa, maksimal ball 21 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 12,81 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standar og'ish esa 4,76 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, qochish motivi shkala uchun 8,05 dan 17,57 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=-,372$) va eksness ($E=-,730$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz chap tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksness kuzatildi.



Musobaqalashuv motivi - natijalarni boshqalarnikidan ustunroq bo'lishga intilish shkalada sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 0 balni tashkil qilsa, maksimal ball 20 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 11,41 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standar og'ish esa 4,09 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, musobaqalashuv motivi shkala uchun 7,32 dan 15,5 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A = -,112$) va eksness ($E = -,339$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz chap tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksness kuzatildi.

Faoliyatni almashtirish xohishi paydo bo'lishi, boshqa faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga urinish shkalasi bo'yicha sinaluvchilarimizning tafsiflovchi tahliliga ko'ra olingan minimal ball 2 qiymatni, maksimal ball 21ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Standart og'ish 4,01 ni tashkil etdi. Faoliyatni almashtirish shkalasi uchun 7,07 dan 15,09 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A = -,157$) va eksness ($E = -,531$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz chap tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksness kuzatildi.

O'zini e'zozlash motivi - faoliyatni qat'iy turib amalga oshirish, yangidan yangi murakkab vazifalar qo'yish va amalga oshirishga intilish shkalasida sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 2 balni tashkil qilsa, maksimal ball 21 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 12,46 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standar og'ish esa 4,37 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, o'zini e'zozlash motivi shkala uchun 8,09 dan 16,83 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A = ,147$) va eksness ($E = -,661$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksness kuzatildi.

Natijalarning ahamiyatliligi motivi sabab va oqibat tamoyiliga ko'ra, muhim shart-sharoitlarga ko'ra ish tutish, faoliyat natijalariga shaxslik mazmunini berish shkalada sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 2 balni tashkil qilsa, maksimal ball 21 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 10,44 ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin, standar og'ish esa 4,17 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, natijalarning ahamiyatliligi motivi shkala uchun 6,27 dan 14,61 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A = ,245$) va eksness ($E = -,262$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksness kuzatildi.

Vazifalarning murakkabligi motivi shkala natijalari shuni ko'rsatadiki, sinaluvchilarning olgan minimal bali 2ni maksimal ball esa 20ni tashkil etdi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 10,17ni, standart o'g'ish esa 3,25 qiymatni tashkil qildi. Vazifalarning murakkabligi motivi shkala uchun 6,29 dan 13,42 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A = ,291$) va eksness ($E = ,694$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksness kuzatildi.

Irodaviy quvvat motivi - topshiriqlarni bajarishdagi irodaviy quvvatni namoyon bo'lishi shkalasining tahliliy natijalariga ko'ra, sinaluvchilarimizning olgan minimal



ball 3ni maksimal ball esa 21ni tashkil etdi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 11,33ni, standart o'g'ish esa 3,60 qiymatni tashkil qildi. Ushbu mezon uchun 7,73 dan 14,93 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=,351$) va eksness ($E=-,018$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksness kuzatildi.

Natijalarga erishganlik darajasining bahosi ushbu faoliyat yo'nalishiga ko'ra o'z imkoniyatlarini baholash shkalasi bo'yicha minimal ball 4ni maksimal ball esa 18ni tashkil sinaluvchilarda tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 11,25 qiymatni, standart o'g'ish esa 2,46 qiymatni tashkil qildi. Ushbu mezon uchun 8,79 dan 13,71 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=,101$) va eksness ($E=,440$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksness kuzatilganini ko'rishimiz mumkin.

O'z imkoniyatlarini baholash shkalaga ko'ra sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 5 ballni tashkil qilsa, maksimal ball 21 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 12,46 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standar og'ish esa 3,05 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, o'z imkoniyatlarini baholash shkala uchun 9,41 dan 15,51 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=,451$) va eksness ($E=,503$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksness kuzatildi.

Quvvatni safarbar eta olinganlik - natijaga erishishda kuchlarni safarbar etishi shkalaga ko'ra sinaluvchilarimiz uchun minimal ball 5 ballni tashkil qilsa, maksimal ball 20 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 12,04 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standar og'ish esa 2,50 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, quvvatni safarbar eta olinganlik shkala uchun 9,54 dan 14,54 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=,409$) va eksness ($E=,411$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksness kuzatildi.

Faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi shkala bo'yicha sinaluvchilarimiz uchun minimal ball 6 balni tashkil qilsa, maksimal ball 18 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 11,86 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standar og'ish esa 2,40 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi shkala uchun 9,46 dan 14,26 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=,096$) va eksness ($E=-,216$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksness kuzatildi.

Natijalarning qonuniyatlari - natijalarning motivatsiya tuzulmasiga ta'siri, unga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar, natijalarni tasodiflarga, vaziyatlarga va shaxsiy imkoniyatga bog'liqligi shkala sinaluvchilarimiz uchun minimal ball 5 balni tashkil qilsa, maksimal ball 21 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 11,20 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standar og'ish esa 2,39 tashkil qilganligini



kuzatishimiz mumkin, ushbu shkala uchun 8,81 dan 13,59 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A= 1,509$) va eksness ($E= 4,446$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchli musbat eksness kuzatildi.

Tashabbuskorlik motivi qo'yilgan topshiriq qanchalik tashabbus asosida yoki biron bir kishining rahbarligi ta'siri tarzda amalga oshirilishi shkalasi bo'yicha bokschilarimiz uchun minimal ball 3 balni tashkil qilsa, maksimal ball 24 ni tashkil qildi, mazkur shkala bo'yicha o'rtacha 11,26 qiymat tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, standar og'ish esa 2,95 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin, ushbu shkala uchun 8,81 dan 13,59 balgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A= 1,213$) va eksness ($E= 4,143$) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchli musbat eksness kuzatildi.

Xulosa: Bokschilarimizning muvaffaqiyatga erishishida metodika shkalalarining har birining muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shkalalar o'zaro bir-birini to'ldiruvchi bog'liqlikka ega.

ADABIYOTLAR:

1. E.G'Goziyev "Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi"-T.: "Universitet", 2003
2. E.G'Goziyev "Umumiy psixologiya"-T.: "Universitet", 2005
3. С.Л.Рубинштейн "Основы общей психологии".-СПб.: питер, 1999 .
4. А. Маслоу "Мотивация и личность". Изд. пер. с англ. – СПб.: Питер, 2008.